

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM SOHASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Baratova Gulshirin Ulug'bek qizi

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti davolash ishi fakulteti
126-guruh talabasi*

Rejamurodova Laylo Anvar qizi

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti davolash ishi fakulteti
126-guruh talabasi*

Umurov Sharif Radjabovich

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti ijtimoiy
va gumanitar fanlar kafedrasi assistenti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi tub islohotlar tahlil qilinadi. Ta'lim sohasini modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarga moslash va raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha qabul qilingan davlat dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlar ko'rib chiqiladi. Maqolada umumiy o'rta ta'lim, oliy ta'lim va kasbiy ta'lim tizimlarida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar, o'qituvchilar malakasini oshirish, o'quv dasturlari va o'qitish metodlarini takomillashtirish, ta'lim muassasalarini moddiy-texnik jihatdan mustahkamlash kabi masalalar yoritiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim islohotlari mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda va yoshlar uchun sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Kalit so'zlar: Ta'lim islohotlari, modernizatsiya, O'zbekiston ta'lim tizimi, raqamlashtirish, oliy ta'lim, o'rta ta'lim, kasbiy ta'lim, o'qituvchilar malakasi, xalqaro standartlar, ta'lim sifati, innovatsion texnologiyalar, o'quv dasturlari, pedagogik yangiliklar, ta'limni rivojlantirish strategiyasi, yoshlar ta'limi.

Kirish: XXI asr – bilim va axborot asri bo'lib, har bir davlatning taraqqiyoti bevosita ta'lim tizimining samaradorligi bilan belgilanmoqda. Zamonaviy ta'lim tizimi nafaqat bilim berish, balki raqobatbardosh, ijodiy fikrlovchi va mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxsni tarbiyalash vazifasini o'z zimmasiga oladi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng ta'lim sohasini isloh qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. So'nggi yillarda, ayniqsa 2017-yildan boshlab mamlakatda ta'lim tizimini tubdan qayta qurish, xalqaro standartlarga moslash va zamonaviylashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda O'zbekistonda ta'lim muassasalarini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, raqamli ta'limni joriy etish, o'qituvchilar malakasini oshirish va o'quv dasturlarini xalqaro talablar asosida qayta ishlash bo'yicha samarali ishlar olib borilmoqda. Ushbu

islohotlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va kelajak avlodni sifatli ta'lim bilan ta'minlash uchun mustahkam poydevor yaratmoqda.

Asosiy qism: Mamlakatimizda keyingi yillarda ta'lim sohasida eng ustuvor islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon joriy yil 9 sentyabrda davlatimiz rahbari raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida yana bir bor o'z ifodasini topdi. Yig'ilishda maktabgacha ta'limdan tortib, maktab va kasbiy ta'limgacha bo'lgan butun tizimdagi holat tahlil qilinib, amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasi va yangi vazifalar belgilab olindi. Ushbu yig'ilish orqali ta'limni isloh qilish jarayoni yanada chuqurlashtirilayotgani, islohotlar "yangi bosqich"ga qadam qo'ygani yaqqol ko'zga tashlandi.

Avvalo, ta'lim tizimiga bo'lgan davlat siyosatining ustuvorligi yana bir bor ta'kidlandi. Prezident ta'limni iqtisodiy taraqqiyot va millat kelajagining bosh omili sifatida belgiladi. Haqiqatan ham mazkur yondashuv, ya'ni inson kapitaliga investitsiya qilish taraqqiyotning uzoq muddatli poydevorini yaratish demakdir. Yig'ilishda tilga olingan ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak, hozirgi kunda 60 mingdan ortiq pedagog oyiga 10–12 million so'm maosh olmoqda. Bu ustama va baholash tizimining rag'batlantiruvchi mexanizm sifatida ishlayotganidan dalolat beradi. 300 ta maktab jamoasi 40 foizgacha ustama olmoqda. Bu o'sish faqat moddiy rag'bat emas, balki o'qituvchining obro'sini tiklash, kasbiy o'sishga qiziqish uyg'otish nuqtayi nazaridan muhim hisoblanadi.

Maktab ta'limiga kelganda, so'nggi yillarda bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar ta'lim tizimida sifat o'zgarishlarini ta'minlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Xususan, so'nggi uch yil ichida 201 ta ixtisoslashtirilgan maktabning tashkil etilgani iqtidorli va yuqori salohiyatga ega o'quvchilarni aniqlash, ular bilan maqsadli va tizimli ish olib borishga katta e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, yig'ilishda ta'limda imkoniyatlar tengligini ta'minlash masalasi ham dolzarb ahamiyatga ega ekanligi alohida ta'kidlandi. O'lis hududlarda 5–7 kilometr masofadan maktabga qatnayotgan qariyb 74 ming bola uchun 100 ta maktab avtobusining ajratilishi bolalarning xavfsizligi va samarali o'qish sharoitiga ega bo'lishiga qaratilgan muhim qadamdir.

Bu tashabbus vaqtinchalik yechim emas, balki doimiy davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi, alohida davlat dasturiga aylantirilishi maqsadga muvofiq. Chunki joylardagi ta'lim infratuzilmasini qo'llab-quvvatlash orqali mamlakat bo'ylab barcha bolalar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash adolatli va barqaror ta'lim tizimining asosiy shartlaridan biridir.

Ta'lim mazmunida ham yangilanishlar bor. Xususan, 1-sinflarda informatika darslari joriy qilingan bo'lsa, yangi o'quv yilidan sun'iy intellekt bo'yicha darslar ham yo'lga qo'yiladi. Bu kelajak sohalarga tayyorgarlik, mehnat bozorida raqobatbardosh

avlod yetishtirishga qaratilgan. Buning uchun 2 ming sinf kompyuter va interaktiv doska bilan jihozlanadi. Shu bilan birga, iqtidorli yoshlar uchun Al-Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek va Ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktablarning turli hududlarda filiallarini ochish rejalashtirilmoqda. Budan ko'zlangan asosiy maqsad — iqtidorli o'quvchilarga yuqori sifatli ta'limni o'z hududida olish imkonini yaratish, markaziy shaharlarga bog'liqlikni kamaytirish va barcha bolalar uchun teng sharoit yaratishdan iborat.

Eng muhimi, bu maktablarni texnikumlar va universitetlar bilan bog'lash rejasi orqali ta'limning uzluksizligiga erishish ko'zda tutilgan. Ya'ni, o'quvchi maktabdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan bosqichlarda bir xil yondashuv va muvofiqlashtirilgan dasturlar asosida ta'lim olishi mumkin bo'ladi. Bunday tizim iqtidorli yoshlarni bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladigan, yaxlit va uyg'un ta'lim muhitini shakllantirishga olib keladi. Mehnat bozoriga raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdagi eng katta muammolardan biri — kasbiy ta'limga bo'lgan talabning pastligidir. Prezident ta'kidlaganidek, mamlakatda 598 ta texnikum mavjud bo'lishiga qaramay, ushbu ta'lim muassasalariga qiziqish past, ularning bitiruvchilari orasida ishga joylashish ko'rsatkichi ham qoniqarli emas. Bu holat, avvalo, ta'lim sifati yetarli darajada emasligi, texnikumlarning ishlab chiqarish sohasi bilan yetarlicha integratsiya qilinmagani hamda boshqaruvdagi samarasiqlik bilan bog'liq. Ana shu muammolarni hal etish maqsadida Kasbiy ta'lim agentligini tashkil etish rejalashtirilmoqda. Bu agentlik orqali kasbiy ta'limni yagona davlat siyosati asosida muvofiqlashtirish, mahalliy va xorijiy investorlar ehtiyojidan kelib chiqib mutaxassislar tayyorlash, ta'limni mehnat bozori talablari bilan uyg'unlashtirish imkoniyati yaratiladi. Qolaversa, texnikumlar bilan dual ta'limni yo'lga qo'ygan korxonalarga imtiyozli kredit ajratilishi xususiy sektor ishtirokini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ayniqsa, pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimidagi yangilanishlar alohida e'tiborga loyiq. Jumladan, Abdulla Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti va uning 13 ta hududiy markazini qayta tashkil etish, Nizomiy nomidagi universitetning Milliy pedagogika universitetiga aylantirilishi kabi tashabbuslar o'qituvchi-pedagoglarimizning malakasi va maqomini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu asosda barcha pedagogika oliygohlari faoliyati tubdan takomillashtiriladi. Jumladan, Termiz pedagogika instituti misolida ko'rilsa, hozirgi fakultetlar o'rnida aniq, tabiiy, ijtimoiy, filologiya, amaliy fanlar, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yo'nalishlari bo'yicha 6 ta oliy maktab tashkil qilinmoqda. Fanlar soni optimallashtirilib, 20 tadan 15 taga, ta'lim yo'nalishlari 31 tadan 17 taga qisqartiriladi, o'quv yuklamasi esa 20 foizga kamaytiriladi. Yaqin hududlardagi maktablar institutning amaliyot bazalariga aylantiriladi.

Bu yil institutning xorijiy til sertifikatiga ega bo'lgan 20 nafar o'qituvchisi Buyuk Britaniya, Germaniya va Singapur kabi davlatlarda malaka oshirish kurslarida qatnashadi. Kelgusi uch yil mobaynida esa barcha professor-o'qituvchilar xalqaro malaka oshirish kurslaridan o'tadi. Bu jarayonlar jahonning "Top-100" talik universitetlari bilan to'g'ridan to'g'ri shartnomalar asosida tashkil qilinadi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ta'lim tizimi islohotlari ustuvor yo'nalishlardan biri etib belgilangan. Bu yilgi davlat dasturida ham maktablarda sharoitlarni yaxshilash, yosh avlodni bilimli etib tarbiyalash bo'yicha ko'plab vazifalar qo'yilgan. Bu, ko'p jihatdan, o'qituvchilarning bilim va malakasiga bog'liq. Yurtimizda 15 ta davlat va 61 ta nodavlat oliygohda pedagogika yo'nalishi bor. Lekin ulardagi ilmiy salohiyat atigi 40 foiz atrofida. Qabullarning katta qismini ijtimoiy yo'nalishlar tashkil etadi. Aniq va tabiiy fanlar bo'yicha pedagoglar tayyorlash juda kam. Talabalarning 40 foizi sirtqi ta'limda o'qiyapti. Shu bois Toshkent davlat pedagogika universitetini transformatsiya qilib, O'zbekiston milliy pedagogika universitetini tashkil etish, kelajak pedagoglari loyihasini amalga oshirish rejalashtirilmoqda. Universitet barcha hududlardagi pedagogika institutlari uchun tayanch oliygoh bo'ladi. "Yangi O'zbekiston" universitetida 40 dan ziyod chet ellik o'qituvchilar va 30 nafar vatandosh ziyolilarimiz faoliyat yuritmoqda. Talabalar o'zlarining turli yo'nalishlardagi loyihalariga jami 24,3 milliard so'mlik grantlar jalb qilgan. Bu salohiyatdan foydalanib, universitetda muhandislik, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, tibbiyot kabi zamonaviy sohalarida mutaxassislar tayyorlashni rivojlantirish, yangi laboratoriyalar ochish rejalari taqdimot qilindi. Shuningdek, oliygohda ilm-fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasini ta'minlash maqsadida Germaniyaning ilg'or tajribasidan foydalangan holda zamonaviy universitet klinikasini tashkil etish rejalashtirilmoqda.

Ta'lim sifatini aniqlashda ham xalqaro uslublar joriy etilmoqda. Bu yil 233 ta maktabdagi 9 ming nafar 15 yoshli o'quvchining bilimi "PISA" xalqaro dasturi orqali baholanadi. Hozirgi kunda 2 mingta maktab yuqori yuklama bilan ishlayapti. Bu yil budget hisobidan 112 mingta yangi o'quvchi o'rni tashkil etiladi. Aholi o'sishi hisobiga, maktablarga ehtiyoj ham ortib boradi. Shu bois Islom taraqqiyot bankidan 200 million dollar jalb etib, hududlarda 58 ta zamonaviy maktab qurilishi rejalashtirilgan.

Tahlillarga ko'ra, maktab yoshidagi bolalarning 80 foizi internet va ijtimoiy tarmoqlarda faol. Ularni zararli axborotlardan himoya qilish bo'yicha muayyan ishlar olib borilyapti. Lekin, yoshlar ta'lim-tarbiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatadigan, qiziqarli milliy kontentlar yaratayotgan ijodkorlar sanoqli. Shulardan kelib chiqib, bolalarga xavfsiz axborot muhitini yaratish, milliy kontentlarni ko'paytirish, ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Xulosa: O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim tizimini zamonaviy talablarga moslash, xalqaro standartlar asosida qayta qurish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bo'yicha olib borilayotgan ishlar samarali natijalar bermoqda. Amalga oshirilgan islohotlar natijasida ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasi sezilarli darajada yaxshilandi, o'qituvchilar malakasini oshirish tizimi takomillashtirildi va zamonaviy o'qitish metodlari amaliyotga tatbiq etildi. O'quv dasturlari xalqaro tajribalar hisobga olingan holda yangilandi va yoshlarning kreativ fikrlash, muammolarni mustaqil hal etish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratildi.

Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining dunyo reytinglaridagi o'rni oshdi, ilmiy-tadqiqot faoliyati kuchaydi va xalqaro hamkorlik rivojlandi. Kasbiy ta'lim tizimi mehnat bozori talablariga moslashtirildi, bu esa bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanish darajasini oshirdi. Biroq, ta'lim sohasida hali ham hal etilishi kerak bo'lgan muammolar mavjud. Jumladan, shahar va qishloq ta'lim muassasalari o'rtasidagi farqni kamaytirish, o'qituvchilar kadrlarini yanada malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, ta'lim sifatini nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Umuman olganda, O'zbekistonda olib borilayotgan ta'lim islohotlari to'g'ri yo'nalishda amalga oshirilmoqda va kelajakda mamlakatning raqobatbardosh kadrlar bilan ta'minlanishiga, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga va davlatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Islohotlarning davom etishi va chuqurlashtirilishi milliy ta'lim tizimini jahon andozalariga yetkazish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. 2019-yil 8-oktyabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4732-son Qarori. 2020-yil 6-may.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni. 2019-yil 29-aprel.
4. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-127-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi rasmiy veb-sayti. www.uzedu.uz
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi rasmiy veb-sayti. www.edu.uz
7. "Yangi O'zbekiston" universiteti rasmiy veb-sayti. www.newuu.uz

8. PISA (Programme for International Student Assessment) xalqaro baholash dasturi.
www.oecd.org/pisa
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. www.president.uz
10. Global Trends In Education And Research Development 15.05.2025. 1645-1649
bet. <https://gisconf.com/index.php/GTERD/issue/view/9>
11. International journal of artificial intelligence 05.01.2025 28-31 bet.
<https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/view/2243>
12. Global Trends In Education And Research Development 15.05.2025. 1645-1649
bet. <https://gisconf.com/index.php/GTERD/issue/view/9>
13. Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар 24.06.2025. 52-53 bet
14. FACTORS AFFECTING THE EFFICIENCY OF ENGLISH LANGUAGE
INSTRUCTION IN HIGHER EDUCATION 24.06.2025 yil. 86-90 bet